



O‘QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
magistranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207553>

***Annotatsiya.** Ushbu maqola adabiy ta‘lim tizimida innovatsion texnologiyalar vositasida o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish hamda o‘qitishga kompetensiyaviy yondashuv masalasiga bag‘ishlanadi.*

***Kalit so‘zlar:** adabiy ta‘lim, innovatsion texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, badiiy-estetik tafakkur, tahlil usullari, ijtimoiy g‘oya.*

Zamonaviy ilm-fan va texnika yuksak rivojlangan globallashuv davrida so‘z san‘atining asl mohiyatini anglash, inson tafakkuri va tasavvurini ma‘naviy-ruhiy boyituvchi adabiy ta‘limning ahamiyatini chuqur idrok etish muhim masalalardan biridir. Bu jarayon nafaqat soha mutaxassisleri, balki til va adabiyot o‘qituvchilari uchun ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodning badiiy-estetik didini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida “jismanan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, Vatanga sodiq, qat‘iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash... yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash” vazifasining qo‘yilishi, Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ijodkor ziyolilar vakillari bilan uchrashuvda “madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san‘atni anglashga o‘rgatish, ularning estetik olamini sog‘lom asosda shakllantirish bo‘yicha oldimizda muhim vazifalar” turganligiga e‘tibor qaratish yoshlarimizda badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirish bilan bog‘liq muammoning dolzarbligi va uni davlat siyosati darajasida hal etish zarurligini ko‘rsatadi.

So‘z san‘atining tub mohiyatini anglash, uni yosh avlodga to‘g‘ri yetkazish va tafakkurini ma‘naviy-ruhiy oziqlantirishga xizmat qilish – bu adabiy ta‘lim oldidagi asosiy vazifalardandir. Texnologiyalar rivojlanib, sun‘iy intellekt va raqamli axborot oqimi hayotimizga chuqur singib borayotgan hozirgi zamonda kitob o‘qishga bo‘lgan munosabat ham o‘zgarib bormoqda. Shu sababli, adabiy ta‘lim faqatgina an‘anaviy

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



usullarga emas, balki zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlarga ham tayanishi kerak. Masalan, interaktiv darslar, audiokitoblar, badiiy asarlar asosida muhokamalar tashkil etish, virtual borliq va hatto sun‘iy intellekt yordamida adabiy jarayonlarni chuqurroq tahlil qilish kabilar bu jarayonda muhim o‘rin tutishi mumkin.

Metodist S.Qambarovanning fikricha, “adabiy ta’limda virtual texnologiyalardan foydalanish qahramonlar qismatidagi ayanchli kunlar, fojialar, ular yo‘l qo‘ygan xatolar sabablarini aniqlab, tahlil qilib, xayolan “ortga qaytish” yo‘li yoki kelgusida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealarni faraz qilish orqali sujet chizig‘ida harakatlanish, o‘sha lavhalarni turli rakurslarda ko‘rish imkoniyatini yaratishi yoxud asardagi hayotni virtual gavdalantirishi bilan xarakterlanadi. O‘quvchi “Agar qahramon o‘sha holatda boshqacha yo‘l tutganida voqea qanday bo‘lishi mumkin edi?” degan faraz bilan voqealar rivojiga ta’sir ko‘rsatsa, ma’lum ma’noda sujetga zid holat kuzatilishi mumkin. Bu jihatni, albatta, dasturchi va g‘oya muallifi avvaldan ko‘zda tutgan va rejalashtirgan bo‘lishi zarur”.

Ilm-fan va jamiyat taraqqiyotining bugungi bosqichida ta’lim tizimining eskirgan an‘anaviy usullari zamonaviy talablarni to‘liq qondira olmasligini hisobga olsak, uzluksiz ta’limning barcha yo‘nalishlarida, jumladan, adabiy ta’lim jarayonida ham texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogik jarayonni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirmasdan turib yuqori natijalarga erishish qiyin.

Ilmiy-adabiy manbalarda “texnologiya” tushunchasi turlicha izohlanadi. Unga faoliyatni tashkil etish usullari, aniq maqsadlarga erishish yo‘llari hamda pedagogik jarayonda qo‘llanadigan metodlarning majmuyi sifatida qaraladi. Masalan, “Ensiklopedik lug‘at”da texnologiya “xalq xo‘jaligining turli sohalarida xomashyo va materiallarni qayta ishlash hamda mahsulot tayyorlash usullarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan fan” sifatida ta’riflanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o‘qitish sifatini oshirishda muhim omillardan biri bo‘libgina qolmay, o‘qitish samaradorligini oshirishga, balki pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

“O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (ingl. “innovationas” – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta’minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanishi”.

Ta‘lim texnologiyasi esa – ing. ta‘lim jarayonini san‘at darajasida yuksak mahorat bilan tashkil etishga doir ma‘lumotlarga oid ta‘limot ma‘nosini anglatadi. U amaliyotga tatbiq qilinadigan pedagogik tizim loyihasi sifatida ilmiylik, amaliylik, tavsifiylik va tizimlilik xususiyatiga ega. Pedagogik texnologiya ma‘lum vaqtga mo‘ljallangan dastur bo‘yicha tuzilgan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishi kafolatlangan, ilmiy jihatdan asoslangan tizimdir. Ta‘lim tizimidagi har qanday o‘quv fanida bo‘lgani singari adabiyot o‘qitish metodikasi rivojida ham jamiyat taraqqiyoti muhim o‘rin tutadi. Asosiy e‘tibor qaratadigan jihat – bu badiiy-estetik tafakkur masalasi va uni rivojlantirishdir.

Tadqiqotlardan ma‘lumki, badiiy-estetik tafakkur taraqqiyoti eng qadimgi davrlardan tortib o‘rta asrlargacha kechgan yaxlit bir ilmiy-ijodiy jarayon sifatida baholanadi. Shu o‘rinda adabiy ta‘lim jarayonini texnologik asosda tashkil etishning nazariy jihatlari nimalardan iborat va u o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishga qanday ta‘sir ko‘rsatadi degan savol tug‘iladi.

Adabiy ta‘lim jarayonini texnologiyalar vositasida tashkil etish zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘quv jarayonini samarali olib borish, ta‘limning sifatini oshirish va o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon quyidagi nazariy asoslarga tayangan holda amalga oshiriladi:

Ta‘lim jarayonini ilmiy asoslangan metodikalar yordamida tashkil etish. Bu usul ta‘lim mazmunini o‘quvchilarga tushunarli va samarali yetkazishga xizmat qiladi. Adabiy ta‘limni texnologiyalashtirishda tushunarlilik, izchillik, mantiqiylik, bosqichma-bosqich rivojlantirish kabi tamoyillar asosida o‘quv jarayoni quriladi.

O‘quvchilarning adabiy asarlarni chuqur tahlil qilish, estetik zavq olish va badiiy idrokini rivojlantirishga qaratilgan ta‘lim metodlari qo‘llaniladi.

Interaktiv ta‘lim usullari, raqamli resurslar va multimediya vositalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning badiiy-estetik tafakkurini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bunda o‘quvchilarning adabiy asarlarni tahlil qilish ko‘nikmasi ortadi; san‘at va badiiy ijodga nisbatan estetik didi shakllanadi; tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi; adabiy jarayon va badiiy hodisalarni anglaydigan avlod shakllanadi. Bu borada atoqli yozuvchi Ulug‘bek Hamdam shunday deydi: “Yangi yuz yillikka va shu bilan birga, yangi ijtimoiy-siyosiy hayotga



kirib borayotgan kunimizda XX asr kishisini, avvalo, tafakkur tadriji va uning ijtimoiy-psixologik asoslari nuqtayi nazaridan tadqiq qilish bugunning ehtiyojidir”.

O‘quvchida barkamollikni ta‘minlashning asosi bo‘lgan badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishda ijodiy va mantiqiy metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. 7-sinf adabiyot darsligida Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” qissasini o‘rganish ko‘zda tutilgan. Matn o‘qib bo‘lingach, ushbu asarni o‘rganishni **imo-ishoralar tili metodi** asosida tashkil etish mumkin. Bu metod noan’anaviy o‘qitishda o‘ziga xos yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning tasavvuri va badiiy idrok qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘qituvchi asardagi asosiy tushunchalarni belgilaydi: hayot uchun kurash, inson irodasi, tabiat va odam o‘rtasidagi munosabat, umid. O‘quvchilarga asardagi muhim syujetlar haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Dars vizual va jismoniy harakatlarga asoslangan bo‘lishi tushuntiriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi. Har bir guruhga asardan bir syujet taqsimlanadi. Ular ushbu sahnani imo-ishoralar, harakatlar yoki pantomima orqali ifodalashlari kerak. Boshqa guruhlar esa harakatlar orqali asarning qaysi qismi ifodalananayotganini tushunishga va izohlashga harakat qilishadi. O‘quvchilar harakat va imo-ishoralar orqali tasvirlangan sahnalardan kelib chiqib, asarning estetik mazmunini tushunishga intiladi. Har bir guruh o‘z ijrosini namoyish qilgandan so‘ng, umumiy tahlil qiladi. Ushbu metodning samaradorligi quyidagilardan iborat:

- Badiiy tafakkurni rivojlantiradi – o‘quvchilar asarni so‘zlar orqali emas, balki his-tuyg‘ular bilan anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar;
- Tasavvur va ijodiy fikrlashni oshiradi – harakat orqali tasvirlash o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi;
- Jamoaviy ish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi – guruh bo‘lib ishlash muloqot va fikr almashish jarayonini mustahkamlaydi;
- Asarning estetik va ma’naviy jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi – o‘quvchilar majoziy va badiiy tasvirlarni o‘z tajribalariga asoslanib idrok qiladilar.

Bu metod darsni jonlantiradi va o‘quvchilarga “Chol va dengiz” asarini nafaqat o‘qish, balki his qilish imkonini ham beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy pedagogik yondashuvlarni zamonaviy texnologiyalar

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



bilan uyg‘unlashtirish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Raqamli resurslar, interaktiv metodlar va kompetensiyaviy yondashuv adabiy ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu boisdan, adabiy ta’limni texnologiyalashtirish nafaqat hozirgi kun talablariga mos, balki yosh avlodni ijodiy va estetik jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yukshaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘z AS, 2017-yil 4-avgust.
2. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 199 b.
3. Matchonov S. Adabiy ta’lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari / “Yangi O‘zbekistonda o‘zbek adabiy tilining rivojlanish tendensiyalari: muammolar, yechimlar, tavsiyalar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Toshkent, 2024. 21-oktabr. – 171 b.
4. Mirzayeva Z. Jalilov K. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2022. – 224 b
5. Qambarova S. Adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish metodologiyasi. Ped. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – 71 b.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 569 b.